



2026 yanvar

Hurmatli oilalar,

Siz yangiliklarda federal bolalarni emlash bo'yicha tavsiyalarga kiritilgan so'nggi yangilanishlar haqidagi ma'lumotlarni ko'rgan bo'lishingiz mumkin. Ushbu yangilanishlar Nyu-York shahridagi maktabga borish uchun zarur bo'lgan vaktsinalarga ta'sir **qilmaydi**. 2025-26 o'quv yilida maktabga boradigan o'quvchilar uchun Nyu-York shtati va Nyu-York shahrining amaldagi emlash talablari o'zgarishsiz qolmoqda.

Veb-saytimizda siz maktab yilining boshida o'quvchilar olishlari shart bo'lgan emlashlar haqida bir nechta tillarda ma'lumot, shuningdek, barcha yoshdagi bolalar uchun Nyu-York shahridagi emlash jadvalini topishingiz mumkin: schools.nyc.gov/immunizations.

Farzandining emlash holati haqida savollari bo'lgan oilalar maktab yoki tibbiyot xodimiga murojaat qilishlari kerak.

Hurmat bilan,

Kevin Moran

Operatsiyalar bo'yicha kansler o'rinbosari vazifasini bajaruvchi
New York City Public Schools (Nyu-York shahridagi davlat maktablari)